


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022  
IYUN  
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
1-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-1**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-1**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 31 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ**

<b>1. Bekchanov San'at Komilovich, X. Paluaniyazov</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY SIYOSATNING DOLZARBLIGI .....	7
<b>2. Бегалиев Искандарбек Хуршид ўғли, Азимхужаев Махмудхужа Мавлон ўғли</b>	
ЖАЗОЛАРНИ ИЖРО ЭТИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШГА ОИД ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҚОНУНЧИЛИГИ ТАРИХИ.....	9
<b>3. Бегалиев Искандарбек Хуршид ўғли, Холиков Асилбек Тўлқинжон ўғли</b>	
МАҲҚУМЛАРНИ ИЖТИМОИЙ МОСЛАШТИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИН- СТИТУТЛАРИ БИЛАН ХАМКОРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	12
<b>4. Sodikov Jaxongir Ibragimjonovich</b>	
JINOYAT QONUNI PRINSIPLARI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	14
<b>5. Turg'anbayeva Indira, Norimmato Sabohat</b>	
HUQUQ SHAKLLARI .....	17
<b>6. Abdullayev Fayzulla Abduqodir o'g'li, Qambaraliyev Muslimbek Xamidulla o'g'li</b>	
BUGUNGI KUNDA CHORRAHALARDА YO'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISH BORASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR .....	19
<b>7. Ш.Ж.Бурханова</b>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЖАМОАТЧИЛИК ПАЛАТАСИНинг НОРМА ИЖОДКОРЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ .....	21
<b>8. Ҳасанбаев Сохибжон Абдушукур ўғли, Холиков Асилбек Тўлқинжон ўғли</b>	
ПРОБАЦИЯ ХИЗМАТИНИНГ ОЗОДЛИҚДАН МАҲРУМ ЭТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН ЖАЗОЛАРНИ ИЖРО ЭТИШНИНГ МОҲИЯТИ.....	23
<b>9. Шакиров Акмалжон Ахмаджон ўғли</b>	
РЕАБИЛИТАЦИЯ АСОСЛАРИГА КЎРА ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШГА ДОИР НОР- МАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ .....	25
<b>10. Самандаров Кудрат Базарбаевич</b>	
МУЛКИЙ ЗАРАРНИ ҶОПЛАШДА МОЛ-МУЛКНИ ХАТЛАШ ТЕРГОВ ҲАРАКАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	27
<b>11. Abdurakhmonova Mumtoza Fazliddin qizi</b>	
THE CONSTITUTION IS THE ENEMY OF OUR HAPPINESS.....	29



## ХУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

### O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY SIYOSATNING DOLZARBLIGI

Bekchanov San'at Komilovich

Qoraqalpoq davlat universiteti Yuridika fakulteti

Davlat boshqaruv huquqi yo'nalishini 2-kurs magistranti

Ilmiy rahbari: yu.f.n. dots. X. Paluaniyazov

Telefon: +998(99) 960 74 76

**Annotatsiya:** Berilgan ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyida berilgan farmonlari hamda o'zlarining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlanga asarlarida O'zbekiston Respublikasida huquqiy siyosatning dolzarbliyi yuzasidan bir nechta ahamiyatlari jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Dolzarb, huquqiy, jamiyat, qonun, madaniyat, davlat, sud.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentimiz jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha yangi Milliy dasturni yaratishda bosh-qosh bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlar ekan, ushbu sohadagi ishlarni yanada rivojlantirish dolzarb masalalardan biri ekanligini juda ko'p marotaba ta'kidlab kelmoqda.

Ana shulardan kelib chiqqan holda Prezidentimizning 09.01.2019-yildagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" farmonlarida Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanishini, shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinganligini, xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzziy olib borilmayaganligini, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlarining ishtiroti yetarlicha ta'minlanmaganligini, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbazarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg'otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi, aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalamasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo'lishini takidlاب o'tdilar.

Prezidentimizning keyingi 19.05.2020-yildagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlarining 2-bobini 2-qismida Tadbirkorlar o'rtasida mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar to'g'risida so'rovlar o'tkazish, xorijiy investorlarni jalb etgan holda tadbirkorlik faoliyatining dolzarb masalalari bo'yicha matbuot anjumanlari o'tkazish orqali tadbirkorlik subyektlari, xorijiy investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarni ishonchli himoya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash. 3-qismida esa Biznes jarayonlarini qayta boshqarish usullaridan foydalangan holda barcha davlat xizmatlarini taqdim etish jarayonlarini optimallashtirish, tartib, muddatlar va zarur hujjatlarni maksimal qisqartirish bilan talablarning dolzarbligini tahlil qilish. 9-qismida Vazirlik tizimidagi xodimlar, advokatlar va yuridik xizmat xodimlari uchun o'quv dasturlarini qonunchilikdagi yangiliklar hamda mavzularni dolzarbligini hisobga olgan holda



muntazam ravishda yangilab borish bo'yicha va boshqa masalalar farmonda o'z aksini topgan.

Respublikamizda huquqiy siyosatning dolzarbliji yuzasidan ko'p sohalardan misollar keltirishimiz mumkin, bu bo'yicha Yurtboshimiz o'zlarining "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlanga asarlarida aytib o'tganlarki, yani – Sud bo'yicha. Aslida sud nima qilishi kerak? Butun dunyoda sud yoki oqlov, yo qoralov hukmini chiqarishi shart. Tamom. Sud hukmining ortida kim turibdi – davlat turibdi, xalq turibdi. Shuning uchun sudyalarning vakolat muddatlarini uzaytirish orqali sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda xalqimiz kutayotgan adolatlari qaror qabul qilishga har tamonlama qodir, mustahkam irodali, yuksak ma'naviy va kasbiy fazilatlarga ega bo'lgan sud xodimlari tarkibini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanishini takidlaganlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Prezidentimizning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" asarlarida qo'shimcha ravishda boshqa muhim vazifalar haqida yani – davlat xizmati, bandlikni ta'minlash, qishloq aholi punktlarida ichimlik suvi tarmoqlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish dasturi, ixtisoslashgan tibbiy markazlar, bugun hayotimizning o'zi Konstitutsiyamizda ifodasini topgan eng asosiy maqsad – inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini va boshqa amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar dolzarb vazifa qilib qo'yilmoqda hamda birin-ketin amalga oshirilmoqda. Yuqorida berilgan farmonlarida ham jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish va boshqalar haqida to'xtalib o'tganlar, umuman olgan Prezidentimizning barcha say-harakatlari yangi O'zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2019-yildagi PF-5618-son//<https://lex.uz/docs/-4149765>.
3. Huquqning dolzarbliji// <https://cyberleninka.ru/article/n/aholining-dolzarb-muammolarini-hal-etishda-huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyatning-o-rni>



**ЖАЗОЛАРНИ ИЖРО ЭТИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШГА ОИД  
ЖИНОЯТ-ИЖРОИЯ ҚОНУНЧИЛИГИ ТАРИХИ**

**Бегалиев Искандарбек Хуршид ўғли**  
ИИВ Академияси курсанти  
**Азимхужаев Маҳмудхужа Мавлон ўғли**  
ИИВ Академияси курсанти  
Тел. +99891-166-60-76

**Аннотация.** Мақолада жазоларни ижро этиш фаолиятини тартибга солишга оид жиноят-ижроия қонунчилити тарихи борасида хуқуқшунос олимлар фикрлари ва қонунчилитидаги тарифлар асосида таҳлил қилниб кўриб чиқилган.

**Таянч тушунчалар:** жазони ижро этиш муассасаси; маҳкум.

Мамлакатда жазони ижро этиш тизимини такомиллаштириш, маҳкумларнинг хуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларининг ҳимоясини таъминлаш, қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш мақсадида уларни ахлоқан тузатиш бўйича тарбиявий ишларнинг самарадорлигини ошириш юзасидан комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга, жиноят-ижроия амалиётини ўрганиш натижалари маҳкумларнинг хуқуқларига риоя этиш, уларнинг шаъни ва қадр-қисмати ҳурмат қилинишини таъминлаш, келгусида жамиятга ижтимоий мослаштириш учун ахлоқан тарбиялаш ва меҳнатга ўргатишнинг шаффоффа ва янада самарали хуқуқий механизмларини жорий этиш зарурлигидан далолат бермоқда.

Хуқуқшунос олимлар А. Сайдов, Ж. Тошқуловларнинг қайд этишича, «ҳозирги Ўзбекистон худудида давлат ва хуқуқнинг пайдо бўлганидан то бу ерда араблар хукмонлиги ўрнатилганга қадар бўлган давр қарийб икки минг йилни ташкил қиласди. Лекин, афсуски, бу даврда ҳаракатда бўлган хуқуқий қоидалар, муассаса ҳақида биз етарлича маълумотга эга эмасмиз. Бунинг асосий сабаби ўша даврга оид хуқуқий манбаларнинг бизгача тўлиғича етиб келмаганлиги ва етиб келганларнинг ҳам атрофлича ўрганилмаганлигидир».

Фикримизча, бу хулоса бу ендашувга кўшилмаймиз чунки бу давргача ҳам жазоларни муқобиллаштирувчи муҳим қонун хужжати бўлган Авесто бўлган ва ушбу китобда белгиланган тартиб бўйича жазоларо ижро этилган. Сўз исботи сифатида хуқуқшунос олимлар А.А. Шодиев ва К.Р. Абдурасулова фикрича, Ўзбекистон тарихининг энг қадимги ёзма манбаси ҳисобланган зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да ҳам нодир маданий ёдгорлик сифатида қадимги тарихий давр ҳақида ноёб маълумотлар мавжуд, хусусан, “Авесто”нинг “Вандидот” номи билан аталган бобида сувдан фойдаланиш, жиноят ва жазо, оила ва никоҳ, мулк билан боғлиқ масалаларни тартибга соловчи қоидалар ўз аксини топган. “Бир кимсани уриб, хушидан айиргани оқибатида товон тўламоқдан саркашли қилган зўравоннинг топгуси жазоси аспаҳиҳа-ашатра (гуноҳкорларни жазоловчи асбоб) ва саравушучарана (муайян гуноҳлар содир бўлганида қўлланилган жазо қуроли) қамчилари билан йигирма мартадан калтакланиши” белгиланганлигини кўриш мумкин.

Профессор А.С. Якубов эса мамлакатимиз худудида жиноят ва жазога оид дастлабки асосий ғояни Қуръони каримга асослангани ва ислом хукуқи нормаларида ўз аксини топганлигини таъкидлайди.

Фикримизча, Қурони карим муқаддас китобимиз бу китоб барча дастлабки норматив хуқуқий хужжатлар асосидир. Ушбу даврдаги қози ва барча фиқҳ уломалари албаттат ушбу китобга тайланган холад иш олиб бораганлар.

М.Ш. Юлдашевнинг фикрича, Қуръони карим нозил бўлган тарихий шароитни ҳисобга олсақ, у муайян бир худудда Давлат ва хуқуқнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ бўлганлиги сабабли ўша даврдаги ижтимоий, иқтисодий ва сиёсий муаммоларни тўла-тўқис ечишга қодир бўлган бўлиши мумкин. Аммо жамият ўзининг бир неча асрлик тарихий тараққиёт йўлини босиб ўтиб, бугунгидек ривожланган бир даврда ҳаётдаги ҳар бир масаланинг ечимини бу китобдан топа олмаслигимиз табиий, албатта.

Профессор А.Х. Сайдовнинг таъкидлашича, Қуръони каримда факат бир неча жиноят турлари, жумладан, ўғрилик, босқинчилик, қасдан одам ўлдириш, тан жароҳати етказиш, порахўрлик, зино, тухмат, жосуслик, исён, спиртли ичимликларни истгъимол қилиш, ота-



онанинг касдан ўз фарзандпарини ўлдириши, судхўрлик хақида сўз юритилган.

М.Ш. Юлдашевнинг фикрича, бу илохий китобдаги кўпгина сураларнинг катор оятларида шахс томонидан содир қилинган уёки бу қилмиш Аллоҳ наздида жиноят саналиб, жазога сазовор бўлиши муқаррар эканлиги тақрор ва тақрор зикр эталган. Шу билан бирга, юқорида санаб ўтилган жиноятларнинг баъзи бирлари учун белгиланган қатъий жазо-хад ва қасос ёки товон хақида хам айтилган.

Ушбу олимлар фикрига қўшилган холда Қурони карим муқаддас китобимизада 30 дан ортиқ жиноят учун жазолар белгиланиб ўтилганлигини маълум қиласиз.

Тарихдан маълумки, мамлакатамиз худудида гоҳида яхлит, гоҳо бир-биридан мустақил тарзда фаолият кўрсатган давлат ёки давлатларнинг маъмурий бошқаруи, иш услублари-ю сиёсий тузуми узоқ йиллар давомида шариат қонунларига бўйсундирилган. Бинобарин, маҳкумнинг ахлоқан тузалишини узоқ кутгандан кўра, ўз даври учун оммага жуда тез таъсир қиласиган, керак бўлса кўркув ва даҳшатга соладиган, жисмоний азоб-уқубат берадиган жазоларнинг самарасига қўпроқ эътибор қаратилган ва фойдалашилган. Жазонинг ижросини халқнинг қўзи олдида амалга ошириш каби қоидалар нафақат бизнинг мамлакатимиз жазолаш тизими тарихи билан, балки дунёдаги бошқа давлатларнинг жазони ижро этиш тизими тарихи билан ҳам bogлиq ўзига хос бўлган умумий хусусиятдар.

Юқоридаги фикр ва мулоҳзалардан шуни англаш мумкинки, жиноят ва жазо, хусусан, озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазони қўллаш ва уни ижро этиш масалаларига инсоният жуда қадимдан тўқнаш келган.

XVIII асрнинг охирига келиб Америка Кўшма Штатларининг Пенсильвания штатида истиқомат қилувчи обрўли квакерлар (христиан динининг Англия ва Америкада тарқалган бир мазхабига мансуб кишилар) сектасига кирувчи бир гурӯҳ амалиётчи- утопиячилар инсоният тарихида биринчи маротаба қамоқхона маконининг ташкилий масалаларига қаратилган жиддий назария билан чикиши. Квакерларнинг гоясига кўра, қамоқда олгаддан асосий мақсад маҳкумга ёлғизликда қилмишлари хақида ўйлаб кўриш ва пушаймон бўлиш имконини беришдир. Ушбу ғоя қамоқхоналар хақидаги илмга «пенитенциар тизим» атамасини олиб келди. Маҳбусларга якка сақланишлари ва фикр-ўйларини бир жойга туплаш имкониятини яратиб бериш мақсадида квакерлар уларнинг ҳар бири алоҳида хоналарда сақланиб, уларни хонанинг ўзида бажарса бўладиган иш (асосан бу иш каноп лосини титиш) билан таъминлаш ва Библия муроаласи билан шуғулланиб ибодат қилишлари таклифини илгари суришган.

Ушбу жазо ижро этилиш ривожланиш тарихини А.А. Шодиев ва Қ.Абдурасоловалар қўйидаги босқичларга бўлиб ўрганган. Шуни инобатга олиб, республика жиноят-ижроия тизимнинг ривожланиш даврини тўрта катта босқичга бўлишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз.

**Биринчи босқич** – шариат қонунлари ва одат ҳуқуки нормалари асосида жиноий жазоларни тайинлаш ва озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросини таъминлаш жойи сифатида зинданларидан фойдаланилган (Бухоро амирлиги, Кўқон ва Хива хонликлари) даврни ўз ичига олади.

**Иккинчи босқич** – озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо шариат судлари ва 1864 йил 20 ноябрда қабул қилинган “Жазолар тўғрисида”ги Низом асосида чор Россияси судлари томонидан белгиланган ва ижроси зинданлар ҳамда маҳсус қурилган биноларда таъминланган чор Россияси ҳукмронлиги даври ҳисобланади. Бу даврда жазолаш тизими инсонпарварлик тамойилларига асосланмаган, балки унда жисмоний руҳий азоб-уқубат бериш ёки инсонни ҳаётдан маҳрум қилишнинг даҳшатли усусларидан фойдаланиш етакчи ўрин тутган.

**Учинчи босқич** – жиноий жазо тизимида озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросининг мақсади-маҳкумни ахлоқан тузатиши эканлиги ва унга нисбатан жисмоний ва маънавий азоб-уқубат етказмаслиги биринчи маротаба расман эътироф этилган. Ушбу босқичда жазонинг мазкур ижросини таъминловчи ихтисослашган давлат органлари тўла-тўқис шаклланган, айни пайтда ушбу органлардан ташкил топган жазони ижро этиш тизимидан фойдаланиб, маълум бир давр оммавий қатағон сиёсати юргизилган собиқ Иттифоқ ҳукмронлиги даври.

Бу даврда барча ягона тизимга қамоқхоналарни бирлаштириш ва уларни бошқаришнинг яхлит тизимини шакллантириш мақсадида Туркистон АССР Халқ комиссарлари Кенгаши



томонидан бир қанча ҳуқуқий асослар яратилди ва қатор амалий чора-тадбирлар белгиланди. Жумладан, Туркистон Марказий Ижроия Кўмитасининг 1918 йил 13 декабрдаги қарори билан “Озодликдан маҳрум этиш жазо чораси ва уни ўташ тартиби тўғрисида”ги Муваққат йўрикнома қабул қилинди.

Ушбу муваққат йўрикнома озодликдан маҳрум қилиш тариқасидаги жазо ижросини таъминлашнинг ҳуқуқий асоси бўлган биринчи норматив ҳужжат эди. Кейинчалик 1961 йил 3 апрель кунидаги ҳукумат қарори билан “Ахлоқ тузатиш-мехнат колониялари ва қамоқхоналари ҳақида низом” ҳамда 1969 йилда “Ахлоқ-тузатиш меҳнат қонунчилиги асослари” ва “Дастлабки қамоққа олиш ҳақидаги низом”, ушбу меъёрий ҳужжатлар асосида эса 1970 йил “Ахлоқ тузатиш-мехнат кодекси” қабул қилинди.

**Тўртинчи босқич** – (1991 й.) Ўзбекистон Республикаси мустақилликка эришгач фуқароларнинг ҳақ-ҳукуклари, қадр-қиммати, қонуний манфаатлари ҳурмат қилиниб, инсоннинг эъзозланиши давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Шу билан республика жиноят-ижроия тизими ривожланиш босқичининг 4-даври бошланди. Жумладан, жиноий жазони ижро этишга оид ҳуқуқ нормалари қонунчиликнинг халқаро меъёр ва стандартларига мувофиқлигига алоҳида эътибор қаратилиб, 1994 йилда Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноятпроцессуал кодекслари, 1997 йил Жиноят-ижроия қодекси қабул қилинди. 2001 йил 29 августда жиноий жазоларнинг либераллаштирилиши муносабати билан “Ўзбекистон Республикаси Жиноят, Жиноят-процессуал ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги Кодексига ўзgartириш ва қўшимчаларни киритиш тўғрисида”ги қонунининг қабул қилиниши алоҳида аҳамият касб этди. Унга кўра, Жиноят кодексининг қатор 125 Махсус сон моддаларида назарда тутилган ўлим жазоси бекор қилинди, 75% жиноят турлари оғир ва ўта оғир туридан ижтимоий хавфи катта бўлмаган ва унча оғир бўлмаган жиноятлар турларига ўтказилди. Шунингдек, содир этилган жиноят натижасида етказилган зарар жиноятчи томонидан тўлиқ қопланган тақдирда, судлар томонидан озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ жазоларни қўллаш амалиёти тутатилди.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Австо. Тарихий-адабий ёдгорлик / Асқар Мачқак ларжимаси. - Т., 2001 - Б. 121.
2. А. А. Шодиев, Қ. Р. Абдурасулова Ўзбекистонда жазони ижро этиш тизимини либераллаштириш босқичлари ва асосий йўналишлари. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. — 2021. — маҳсус сон. -Б. 123.
3. Яқубов А.С. Предпосилки уголовно-правовой реформм в Республике Узбекшгган. - Т., 1994.-С.6.
4. М.Ш.Юлдашев. Озодликдан маҳрум қилиш жазосини ташкил этиш. ИИВ Академияси.Т. 2010.-Б 10.
5. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик / А.С. Яқубов, Р. Кабулов ва бошкалар-Т,2004.-Б 58.
6. Сайдов А.Х. Основы мусульманского права. –Т.,1994. –Б. 60.
7. Абдулваҳҳоб Ҳаллаф. «Услул фикҳ» (Ҳуқуқ масалалари) - Т 1997 -Б 107-108.
8. Мухтасар: (Шариат қонунларига қисқача шарҳ). Нашрга тайерловчилар. Р. Зоҳид, А. Дехқон. - Т., 1994. -Б. 294.



## МАҲКУМЛАРНИ ИЖТИМОИЙ МОСЛАШТИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Бегалиев Искандарбек Хуршид ўғли  
ИИВ Академияси курсанти  
Холиков Асилбек Тўлқинжон ўғли  
ИИВ Академияси курсанти  
Тел. +99891-166-60-76

**Аннотация.** Мақолада жазони ижро этиш муассасаларини маҳкумларни озодликка тайёрлаш ва уларни жазони ўтаб бўлгандан сўнг иш билан таъминлаш борасида хуқуқшунос олимлар фикрлари ва қонунчиликдаги тарифлар асосида таҳлил қилниб кўриб чиқилган.

**Таянч тушунчалар:** жазони ижро этиш муассасаси; маҳкум; тараққиёт стратегияси; дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети.

Маълумки, миллий давлатчилигимиз тарихида илк бор шаҳарча, Фуқаролик жамиятининг мухим бўғини бўлган қишлоқ, овул ва маҳалла фуқаролар йиғинлари ўзини ўзи бошқаришнинг ҳудудий бирликлари сифатида Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 105-моддасида мустаҳкамлаб кўйилди. Чунончи, Асосий Қомусимизнинг мазкур моддасига асосан, шаҳарча, қишлоқ ва овулларда, шунингдек улар таркибидаги маҳаллаларда ҳамда шаҳарлардаги маҳаллаларда фуқароларнинг йиғинлари ўзини ўзи бошқариш органлари ҳисобланади. Бошқача айтганда, «ҳудудий тамойил бўйича яшаш жойларида – шаҳар, қишлоқ, овул ва маҳаллаларда ташкил қилинадиган йиғин» сифатида эътироф этилди.

Албатта, фуқаролар жамияти институтининг ўзини ўзи бошқариш органи Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 105-моддасида мустаҳкамланганлиги давлат мустақиллиги ва сиёсий суверенитетга эришиш шароитида давлатчиликтининг миллий шаклларини тиклаш, Ўзбекистон халқининг ижтимоий ҳаётидаги миллий анъаналар ва одатларидан янада тўлиқ фойдаланиш жараёнлари кузатилаётганлигидан дарак беради, ўзини ўзи бошқариш тизимининг энг қуий маъмурий-ҳудудий бўлакларда ва маҳаллаларда жорий қилинганлиги масалага тўғри ёндашилганлигини кўрсатади. Айни пайтда мазкур соҳага оид муносабатларни такомиллаштириш учун конституциявий асос яратилганлигидан далолат беради.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, 1993 йил 2 сентябрда илк маротаба қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонунидан фарқли ўлароқ, 1999 йил 14 апрелда ҳамда 2013 йил 22 апрелда янги таҳrirда қабул қилинган қонунларда шаҳарча, қишлоқ, овул ва шаҳардаги маҳалла фуқаролар йиғинлари ҳамда шаҳарчадаги, қишлоқдаги ва овулдаги маҳалла фуқаролар йиғинининг ваколатлари алоҳида моддаларда белгиланди.

Демак, мамлакатимизда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг 4 та тури – шаҳарча, қишлоқ, овул ва маҳалла фуқаролар йиғинлари мавжудлигини ҳамда Г.Маликова тўғри таъкидлаганидек, ўзини ўзини бошқариш тизими икки поғонали эканлигини эътироф этиш лозим. Яъни биринчи поғона – шаҳарча, қишлоқ, овул фуқаролар йиғини ва шаҳардаги маҳалла фуқаролар йиғини бўлса, иккинчи поғона – шаҳарча, қишлоқ ва овулдаги маҳалла фуқаролар йиғинидан иборат<sup>1</sup>. Айни пайтда республикамизда 9116 та фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, шу жумладан 26 та шаҳарча, 101 та қишлоқ, 162 та овул, 8827 та маҳалла фуқаролар йиғинлари фаолият кўрсатмоқда.

Чунончи, Фуқаролик жамияти институтининг мухим бўғини бўлган ўзини ўзи бошқариш органларининг ўзаро жазони ижро этиш муассасалари билан ҳамкорлиги тасирчан йўлга қўйилмаган. Ушбу орган билан агар жазони ижро этиш муассасасидан озод этилаётган шахснинг маълум сабабларга кўра аниқ турар жойи бўлмаса, жазони ижро этиш муассасаси маъмурияти унга яшаш жойи билан таъминлаш, доимий яшаш ёки вақтинча турган жойи бўйича рўйхатга олишга ҳамда ишга жойлашишга ёрдам беришни сўраб, шунингдек ногиронлиги бўлган шахсларни ёки оғир касалликларга чалинган шахсларни даволаш масалаларини олдиндан ҳал қилиш тўғрисида тегишли маҳаллий давлат ҳокимияти

1 Маликова Г.Р. Ўша манба. – Б.78.



органларига, ички ишлар органларига ва соғлиқни сақлаш муассасаларига илтимоснома юбориши каби масалаларда ўз хамкорлигини билдириш мақсадгага мувофиқ бўлар эди.

Ўзини ўзи бошқариш органи ва жазони ижро этиш муассасалари ёки органлари билан маҳкумларни озодликка ижтимоий мослаштиришда хамкорлигининг ўзига хос жиҳатлари қуидагиларда номоён бўлади:

*Биринчидан*, маҳкумлар ва оилаларни даромад манбаларини, шу жумладан, томорка ерлардан фойдаланиш ҳамда даромадли меҳнатга бўлган интилиши ва эҳтиёжларини «хонадонбай» ўрганиш;

*Иккинчидан*, озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод этилган шахсларни ижтимоий мослаштиришда маҳкумлар озодликка чиққандан сўнг ёки жазо ўтаётган даврда уларнинг оила аъзоларидан ишсиз ёшлар ва хотин-кизларининг муаммоларини ўрганиш орқали уларни касб-хунар ва тадбиркорликка ўргатувчи курсларга йўналтириш ва меҳнат фаолияти билан шуғулланишга амалий кўмаклашиш;

*Учинчидан*, озодликдан маҳрум этиш жойларидан озод этилган шахсларни ижтимоий мослаштиришда маҳкумлар ва оила аъзоларининг ўз мустақил фаолиятини (мисол тадбиркорлик) амалга оширишга тўсиқ бўлаётган (ер ажратиш, қурилиш учун рухсат бериш, турли хил фаолиятлар учун лицензия олиш, бўш бино ва ер майдонларини тадбиркорлик учун ажратиш, коммуникация тизимларига уланиш) муаммоларни тезкорлик билан ҳал этиш каби ишларда ҳамкорлиги ўзига хос хусусиятларидан хисобланади.

### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Бойдадаев М. Ўзбекистонда ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қурилиши ва бошқарув тизимининг шаклланиши ва такомиллашувининг ҳуқуқий асослари: Юрид. фанлар доктори .. диссертацияси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академияси, 2001. – Б.209.

2. Джалилов Ш.И. Реформа местных органов государственной власти в Узбекистане (1990-1994 гг.): Дис...докт.юрид.наук. – Ташкент: ТГЮИ, 1994. – С.221.

3. Хусанов А.Т. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва маҳаллий давлат ҳокимияти асослари: ҳуқуқий, ташкилий масалалар ва муаммолар: Юрид. фанлар доктори .. диссертацияси. – Тошкент: ТДЮИ, 1995. – Б.149.

4. Маликова Г.Р. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш институтининг конституциявий (ҳуқуқий) асосларини такомиллаштириш муаммолари: Юрид. фанлар доктори .. диссертацияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2009. – Б.5.

5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й. – №9. – 322-м.

6. Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 14 апрелда янги таҳрирда қабул қилинган «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й. – №5. – 110-м.; Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 22 апрелдаги ЎРҚ-350-сонли қонуни билан тасдиқланган янги таҳрирдаги «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси, 2013 й. – №4. – 96-м. Маликова Г.Р. Ўша манба. – Б.78.

7. Ўзбекистон «Маҳалла» хайрия жамоат фонди республика бошқарувининг архив материалларидан. – Т., 2019.



## JINOYAT QONUNI PRINSIPLARI TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI

Sodikov Jaxongir Ibragimjonovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat qonunchiligin qo'llash nazariyasi

va amaliyoti fakulteti magistranti

**Annotatsiya:** Makur tezisda jinoyat qonunchiligi va jinoyat kodeksining prinsiplari va ularning qonunchilikdagi ahamiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini batafsil tahlil qilishga bag'ishlangan. Har bir prinsipning umumiy va xususiy jihatlari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Prinsip tushunchasi, xalqaro huquq normalarida prinsiplarning ahamiyati, harakatlanish mexanizmi.

*Inson qadrini ulug'lash bizning asosiy maqsadimizdir.*

*Sh.M.Mirziyoyev.*

Jinoyat huquqi prinsiplari deganda, jinoyat qonunchiligidagi qoidalarning normativ asosini belgilab beruvchi jinoyat huquqi prinsiplarining yig'indisi tushuniladi. Jinoyat huquqi prinsiplarining tizimi Jinoyat kodeksining 3-moddasida mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra, Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi. Jinoyat huquqi prinsiplari deb, jinoyat huquqi yoxud uning alohida institutlari mazmunini izohlovchi, jinoyat huquqining normalarida belgilangan dastlabki asos hamda asosiy g'oyalalar tushuniladi.

Prinsiplar deganda jinoyat qonunida belgilanib o'tilgan demokratik mamlakatning jinoyat-huquqiy siyosati mohiyatini hamda hozirgi yo'nalishlarini belgilaydigan, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik masalalari, chegaralari va shakllari haqida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, diniy shuningdek, huquqiy tasavvurlarini aks ettiradigan yetakchi g'oyalalar hamda asosiy qoidalar tushunilanadi.

Jinoyat kodeksidagi normalarning tizimi hamda jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari o'zaro bir-biriga bog'liq hamda bir-birini belgilovchi huquqiy prinsiplardan tarshkil topadi. Jinoyat huquqi prinsiplarining vazifalari jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi qonun chiqaruvchi, qonunni amalda qo'llovchi organlar va jamiyatdagi barcha fuqarolar uchun majburiy bo'lgan asosiy qoidalar jamlammasidir..

"Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining huquqiy prinsiplari jinoyat-huquqiy normalarda mustahkamlangan va Jinoyat kodeksi vazifalaridan kelib chiqqan holda jinoiy javobgarlikning umumiy asoslарини, yo'nalishini va hajmini belgilovchi tayanch g'oyalardir"<sup>1</sup>.

Jinoyat kodeksning vazifalaridan farqli o'laroq jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarida prinsiplari jinoiy-huquqiy siyosatning yo'nalishini belgilamasadan, uni amalgalashishning ayrim tayanch usullarini ko'rsatib beradi. Aynan Kodeksning vazifalari jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlarining xususiyatlari va prinsiplari tizimini belgilab beradi<sup>2</sup>.

Jinoyat huquqi prinsiplari dastalab xalqaro huquq normalariga, xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarga mos kelishiliyligi bilan jinoyat qonunidagi prinsiplar o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mosligi hamda undagi normalardan kelib chiqishi kerak. Jinoyat huquqi prinsiplari jinoyat huquqi normalari uchun **fundamental asos** bo'lib xizmat qiladi, ya'ni jinoyat huquqi normalar jinoyat huquqi prinsiplaridan kelib chiqadi hamda ularga zid bo'imasligi darkor. Ushbu prinsiplar huquq nazariyasida prinsip normalar deb ataladi. Jinoyat huquqi prinsiplari *bir-biriga bog'liq* tarzda zanjirsimon harakatda bo'lib, ulardan birining buzilishi o'z navbatida boshqa prinsiplarning buzilishiga olib keladi. Quyida jinoyat kodeksida mustahkamlab qo'yilgan prinsiplarni nazariy jihatdan tahlil qilib olishimiz joiz:

1 Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 20 b

2 O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh(qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr. 2016 yil 1-noy-abrgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) maxsus qism / M.Rustamboyev – Toshkent "Adoloat" 2016.



Jinoyat huquqi prinsiplari *obyektiv* va *subyektiv* belgilarga ega.

Prinsiplarning obyektiv belgisi - jinoyat huquqi prinsiplarining jinoyat huquqi normalari bilan mustahkamlanganligi va huquqiy faoliyatning asosi bo‘lib xizmat qilishida ifodalanadi.

Prinsiplarning subyektiv belgisi - jinoyat huquqi prinsiplarining alohida subyektlar: qonun chiqaruvchi va huquqni qo‘llovchi organlar, shuningdek, fuqarolar tomonidan individual ongli qabul qilib olinishi bilan bog‘liqdir.

Prinsiplarning subyektiv mohiyati ularning umumtartibga soluvchi ahamiyatga ega ekanligini bildirib, shaxslarni o‘z qilmish (xatti-harakat)larini boshqara olishlariga undaydi.

Jinoyat huquqi prinsiplari jinoyat qonunchiligini “*go‘llash*” borasida jinoyat huquqi uchun asosiy qoidalarni belgilab beradi.

Jinoyat huquqi prinsiplarining “*harakatlanish mexanizmi*” jinoyat qonunlarini qo‘llovchi shaxslar (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya) orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat huquqi prinsiplari buzilganda bunday buzilishlarni bartaraf etish hamda prinsiplarning buzilishiga olib kelgan g‘ayriqonuniy qaror va xatti-harakatlarni bekor qilish uchun davlat nazorati (sud, prokuratura organlari nazorati) harakatga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan prinsiplar:

***birinchidan***, jinoyat qonunining asosiy prinsiplariga e’tiborni qaratish;

***ikkinchidan***, jinoyat huquqi prinsiplarining mohiyati, harakati hamda ularning jinoyat huquqi normalari bilan aloqasini chuqurroq o‘rganish;

***uchinchidan***, u yoki bu prinsiplarning ma’lum bir huquq sohasiga taalluqliligi borasidagi bahslarning oldini olish imkonini beradi.

Jinoyat huquqi prinsiplari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, qonunning ustuvorligi, ijtimoiyadolat, insonparvarlik, demokratizm, fuqarolarning tengligi, umuminsoniy qadriyatlar va umume’tirof etilgan xalqaro huquq normalarining ustuvorligi kabi prinsiplarga asoslanadi hamda ulardan kelib chiqadi. Ayni paytda jinoyat huquqining har bir prinsipi ushbu huquq sohasining tartibga solish uslubi va bajaradigan vazifalari bilan aloqador hamdir.

Qonunda prinsiplarning mustahkamlanganligi ularga *umummajburiylik xususiyatini* beradi, binobarin, prinsiplar kishilar ongiga ta’sir ko‘rsatish omillari sifatida qonun chiqarish va huquqni qo‘llash faoliyatini yanada rivojlantirish uchun huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Barcha prinsiplarning yig‘indisi demokratik jinoyat huquqining chinakam mohiyatini ifodalaydigan ichki o‘zaro mufoviquqlashtirilgan qoidalarning yaxlit tizimini tashkil etadi.

Jinoyat huquqi prinsiplari tizimi deganda jinoyat qonunchiligidagi qoidalarning normativ asosini belgilab beruvchi jinoyat huquqi prinsiplarining yig‘indisi tushuniladi.

Prinsiplar tizimi jinoyat huquqining markaziy jinoyat-huquqiy masalasi hisoblangan jinoyat va jazo toifalarini o‘zida mujassamlashtiradi. Tizimga kiradigan barcha prinsiplarning ahamiyati o‘zaro tengdir. Zero, ularning har biri mustaqil mohiyatga ega bo‘lib, davlatning jinoyat-huquqiy (jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi) siyosatini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan vazifalarni bajaradi. Jinoyat huquqining har bir prinsipi mustaqil mazmunga ega bo‘lsada, ular bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan, yagona tizimdan tashkil topgan prinsiplar majmuidan iboratdir. Ularda O‘zbekistonning jinoyat-huquqiy siyosati o‘z ifodasini topgan.

Jinoyat huquqi prinsiplari fuqarolarga qonun bilan yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishga bevosita ta’sir etadi. Qonunda asosiy yetakchi g‘oyalarning e’lon qilinishi hamda unga normativ mohiyatni berish axloq tuzatish va ogohlantirish vazifalarini bajarish majburiyatini yuklaydi. Prinsiplar tizimi Jinoyat kodeksining Umumiyl hamda Maxsus qismlari normalaridagi jinoyat huquqiga oid muaayyan muammolarni hal qilish asosi hamda boshlang‘ich nuqtasi bo‘lishi bilan birga, jinoyat huquqiga oid muaayyan munosabatlar doirasida jinoyat qonunining muhofazalovchi hamda tartibga soluvchi vazifalarini bajarish imkonini beradi. Jinoyat kodeksi normalarida mazkur prinsiplarning mavjudligi jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Zero, ular jinoyat va jazoga nisbatan nafaqat hozirgi va tarixiy davrda qabul qilingan huquqiy qarshlarni aks ettiradi, balki jinoyat huquqiga oid munosabatlarga qaratilgan umuniy talablarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, huquqiy prinsiplar tizimiga nafaqat fuqarolar, balki jinoyat huquqiga oid qoidalarni qo‘llash vakolati berilgan davlat organlariga ham ta’sir ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan.

Normativ prinsiplarning fuqarolarga ogohlantirish yo‘li bilan ta’sir o‘tkazishi huquqiy ongni jinoyat qonuni ko‘rsatmalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi e’tiqod darjasida tarbiyalash, ularga nafaqat avlat va jamiyat manfaatlari, birinchi navbatda, o‘z manfaatlardan



kelib chiqqan holda rioya qilish zarurligi maqsadiga egadir. Har kim o‘zgalar manfaati, huquq va erkinliklarini hurmat qilmas ekan, davlat tomonidan kafolatlangan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash mumkin emas. Davlatning huquqiy siyosati negizlarini ifodalaydigan yetkchi g‘oyalarning jinoyat qonuni normalarda mustahkamlanishi fuqarolarning taqiqlar va ko‘rsatmalarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishiga yordam beribgina qolmay, balki ularning jinoyatchilikka qarshi kurashishda jinoyat huquqiga oid siyosatning mohiyatini tushunib yetishlariga ham ko‘maklashadi.

Jinoyat huquqiga oid ko‘rsatmalarni qo‘llash vakolatlaria ega bo‘lgan davlat idoralarining mansabdar shaxslariga normativ prinsiplarning ta’siri ular faoliyatida Jinoyat kodeksida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlaria kafolatlangan fuqarolarning huquq va manfaatlariga barcha choralar bilan roiya qilishni, o‘z xizmzt majburiyatlarini bajarishda shaxsiy ma’suliyat va talabchanlik tuyg‘ularini oshirish maqsadini qo‘yadi.

Qonun chiqaruvchining o‘zi ham huquqiy prinsiplar tizimiga rioya qilib ish ko‘rishi lozim. Jinoyat to‘g‘risidagi qonunchilikni rivojlantirish yangi jinoyat qonunlarini qabul qilish va amaldagi jinoyat huquqiga oid ko‘rsatmalarni o‘zgartirish, bekor qilish, davlatchilik rivojining obyektiv ehtiyojlarini bilan hamisha bog‘liq bo‘lishi shart. Biroq, ayni paytda, qonun chiqaruvchi mazkur ehtiyojlarni prinsiplarda aks etgan yetakchi g‘oyalari va qoidalar bilan tenglashtirishi lozim, chunki jinoyat va jinoyatchilikni bekor qilish qonunda mustahkamlangan asosiy qoidalarning huquqiy ko‘rsatmalariga zid kelmasligi kerak. Mazkur talabga ko‘ra, jinoyat huquqi prinsiplari normalarda mustahkamlangani bois, qonun chiqaruvchining o‘zi ham ularga rioya qilishi zarur bo‘ladi.

Xulosa qilar ekanmiz inson huquqlari masalasi davlatning faqat ichki masalasi bo‘lmasdan, xalqaro ahamiyatga egadir. Inson huquqlarini ta’minlashda xalqaro tashkilotlar, ular tomonidan qabul qilingan hujjatlar alohida rol o‘ynaydi. Lekin har bir shaxs, inson asosan biror-bir mamlakat hududida yashaydi va ko‘pincha ma’lum mamlakatning fuqarosi hisoblanadi. Shuning uchun alohida shaxslar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashda davlat markaziy o‘rinda turadi. Davlat buning uchun, eng avvalo, insonlarning huquqini ta’minlovchi huquq tizimini yaratadi. Ya’ni inson huquqlarini ta’minlovchi huquq tizimi milliy huquq tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda inson huquqlarini ta’minlovchi milliy huquq tizimida O‘zbekiston Konstitutsiyasi alohida o‘rin tutadi. Shu bois ham jinoyat huquqida prinsiplarning o‘z ahamiyatining kasb etishini inobatga olgan holda ushbu tizimdagи protsessul jarayonlarni asosiy qomusimiz bo‘lmish konsititusiyada asos qilib belgilanishini ifodalashimiz mumkindir. Zero, jinoyat huquqi prinsiplar tizimi jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining demokratik mohiyatini aks ettiradi va shu bilan birga huquqni qo‘llash amaliyotining barqarorligi va yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi, bu bilan qonun chiqaruvchi tomonidan ayrim jinoyat-huquqiy me’yorlarni o‘zgartish, qo‘shimchalar kiritish, bekor qilishning hamda vakolatli davlat organlari tomonidan ularni qo‘llashning rahbariy asoslarini belgilab beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 20-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharh(qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashr. 2016 yil 1-noyabrgacha bo‘lgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan) maxsus qism / M.Rustamboyev – Toshkent “Adoloat” 2016-yil.



## HUQUQ SHAKLLARI

Turg‘anbayeva Indira

Xorazm viloyati Gurlan tumani

24-maktabning huquq va tarbiya fani o‘qituvchisi

Norimmatova Sabohat

30-maktabning huquq va tarbiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, huquq shakllarining paydo bo‘lishi va huquqning shakllari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** huquq, shakl, huquqiy odad, huquqiy pretsedent, normativ-huquqiy hujjat va normativ shartnomalar, mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar.

Qadim zamonlardan buyon jamiyat rivojlanishi oqibatida odamlarda davlat va huquq masalalariga munosabat o‘zgarib bordi va bu hamma vaqt dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Jamiyat rivojlanishi bilan davlat va huquq shakllari ham birgalikda rivojlanib, o‘zgarib bordi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng uning davlat va huquq shakllari tubdan o‘zgardi. Shuni qayd qilish lozimki, huquqning manbai tushunchasini uni tashqi ifodalash shakli nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, huquq normalari davlat yoki shu davlatning, xalqining, biron bir sinfning yoki guruhning manfaatlarni ifodalovchi ma‘lum bir siyosiy kuchning erkini qonun darajasiga ko‘tarilgan ifodasidir. O‘zbekistonda huquq normalari xalq manfaatlarini ifodalovchi, xalqqa xizmat qiladigan, xalqning erk – irodasini ifodalovchi qonun darajasiga ko‘tarilgan normalardir.

Huquq shaklining ahamiyati, davlatdagi huquqiy tartibning darajasi va sifatiga bog‘liq, faqat ularni o‘ziga «tortib turadi», lekin, u «kerak bo‘lmaganda» harakatsiz qoldiradi. Huquq tartibotining oyoqqa turishi va mustahkamlanishida huquqning barcha shakllari ishtirok etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy islohotlar mustahkam huquqiy zaminga tayangan, qat‘iy davlat siyosatini ta’minlash mexanizimini vujudga keltirmoqda. Shu bois davlat tuzilishi, demokratik siyosiy tuzilishning mavjud bo‘lishi, huquqiy munosabatlar oqilona tizimining tashkil etilishi ko‘p jihatdan mamlakatimizdagi huquqiy institutlarning faoliyatiga bog‘liqdir.

Huquqda shakl kategoriyasi ikki ma‘noni bildiradi: ya‘ni bir tomondan, huquqiy shaklni; ikkinchi tomondan, huquqning o‘z shaklini qamrab oladi.

1. Huquqiy shakl – barcha huquqiy voqelikdir. Bu yerda iqtisodiy, siyosiy turmush va boshqa munosabatlar bilan bilvosita bog‘liq bo‘lgan huquqiy hodisalar haqida so‘z yuritiladi. Shaklning huquqiy (yuridik) tushunchasi, huquqning (yoki har qanday huquqiy hodisaning) barcha ijtimoiy tuzilma, jarayon va munosabatlar bilan aloqasi ochilgandagina qo‘llanadi.

2. Huquqning shakli bu huquqning alohida hodisa sifatidagi shakli bo‘lib, u faqat huquqning mazmuni bilangina o‘zaro bog‘lanadi. Uning vazifasi huquq mazmunini tartibga solishdan iborat.

Yuridik adabiyotlarda e’tirof etilishicha, huquqning manbasi deganda, umumiylar ma‘noda huquqning ifoda etilish shakli tushuniladi. Huquqiy hodisa sifatida huquqning manbasini uch xil ma‘noda tushunish mumkin: moddiy ma‘noda – bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a‘zolarining qiziqishlari va manfaatlari; mafkuraviy ma‘noda – bu turli huquqiy mafkura va ta‘limotlar, huquqiy ong; maxsus yuridik ma‘noda – bu huquqning shakllari.<sup>1</sup> Huquq tushunchasida maxsus huquqiy mazmunnigina emas, balki uning mavjud bo‘lishining ichki shaklini ham tushunmoq lozim. Huquqning manbalari (shakllari) tushuncha sifatida huquqning davlat bilan bog‘liqligini bevosita ifodalaydi. Agar huquqning mazmuni bo‘lib umumiylar yurish-turish qoidalari yig‘indisi hisoblansa, uning ichki shakli har bir alohida huquq normasining tashkil topish usullari va barcha huquq normalarining bir tizimga birlashishidir, uning tashqi shakli yoki huquqning manbasi esa, davlat erkini o‘ziga xos hujjatlashirish, shakllantirish usullari yig‘indisidir. Huquqning manbasi tushunchasini uni tashqi ifodalash shakli nuqtai nazaridan tahlil qilganda, normalar hokimiyat tepasida turgan, xalqning, biror–bir sinfning yoki guruhning manfaatlarini ifodalovchi ma‘lum bir siyosiy kuchning erkining qonun darajasiga ko‘tarilgan ifodasidir. Davlat hokimiyatini tashkil qiladigan va huquqni yaratadigan kuch sifatida maydonga chiqadigan jamiyatning moddiy shart-sharoiti, moddiy ma‘noda huquqning manbasi tushunchasini anglatadi.

1 N.Saburov, Sh.Saydullayev. Davlat va huquq nazariyasi.-T.: TDYUI, 2011.- 171 bet.



Shakl doimo mazmunga ega bo‘lishi kerak, agar u mazmunga ega bo‘lmasa, o‘z qadr – qimmatini yo‘qotadi.

Xulq-atvor qoidasi huquqiy normaga aylanishi uchun ma‘lum yuridik shakl olishi kerak. Natijada qonun chiqaruvchi organning irodasi bajarilishi majburiy bo‘lgan muayyan huquqiy hujjatda o‘z ifodasini topadi.

Huquq manbalarini quyidagi uch asosiy turi mavjud:

- ✓ huquqiy odat;
- ✓ huquqiy pretsedent;
- ✓ normativ-huquqiy hujjat va normativ shartnomalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Saburov. Davlat va huquq nazariyasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.; TDYUI. 2008. 165 b.
2. www.tsil.uz
3. www.lex.uz



**BUGUNGI KUNDA CHORRAHALARDA YO‘L-TRANSPORT HODISALARINING  
OLDINI OLİSH BORASIDAGI AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR**

**Abdullahayev Fayzulla Abduqodir o‘g‘li**  
Ma’muriy huquq kafedrasasi o‘qituvchisi  
**Qambaraliyev Muslimbek Xamidulla o‘g‘li**  
IV Akademiyasi kursanti  
Tel. +99899 826-99-16

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda chorrahalarida yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi amalga oshirilayotgan ishlar, ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati va o’rni haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch tushunchalar.** Avtomobil, yo‘l harakati qoidalari, harakat xavfsizligi, qoidabuzarlik.

Bugun dunyo shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, insonlarning transport vositalariga bo‘lgan ehtiyoji yanada ortayotganligi tabbiy holdir. Transport vositalarining insonlarga qulayligi va uzog‘ini yaqin qilishi bilan birga, undan foydalanishda xavfsizligiga rioya etmaslik insonlar hayoti, sog‘lig‘iga hamda mol-mulkining jiddiy ziyon yetkazayotganligi achinarli hol, albatta. Mana shunday holatlarning ko‘pehiliqi chorrahalarida vujudga kelmoqda. Chorrahalarida vujudga keladigan yo‘l-transport hodisalari insonlar, jamiyat va davlatga turli ko‘rinishdagi salbiy holatlarni yuzaga keltirmoqda. Ularning oldini olish va sodir etilishini minimallashtirishga qaratilgan turli chora-tadbirlarini davlatimizning qonunchilikdagi islohotlarida ham o‘z aksini topgandir. Shunday holatlardan yana biri bu 2022-yil 4-aprel kunida „Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” PQ-190-son bilan yangi normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Unga asosan mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilishi belgilandi. Tuman (shahar) hokimliklariga o‘z hududlaridagi avtomobil yo‘llarida yo‘l harakati qoidalari bузilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video dasturiy-texnik vositalarini o‘rnatish huquqi beriladi. Mazkur dasturiy-texnik vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun jarima summasining 30 foizi bevosita tuman (shahar) mahalliy budgetiga yo‘naltiriladi hamda ushbu mablag‘lar yo‘l harakatini raqamlashtirish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, belgilandi. Shuningdek, ushbu qarorning 1-ilovasida - doimiy ravishda yo‘l harakati xavfsizligi sohasidagi ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosiy vazifalardan qilib belgilandi. Bu kabi islohotlar yo‘llarda xavfsiz harakatni tashkil etish va insonlar hayoti, sog‘lig‘ini hamda mulkining zarar ko‘rishining oldini olish maqsadida amalga oshirilmoqda. Bugun shu kabi holatlardan chorrahalarда sodir etilayotgan YTHlar, o‘zining dolzarbliyi bilan ajralib turadi. Unga ta‘rif berilganda quydagicha; Chorraha – yo‘llarning o‘zaro bir sathda kesishadigan, tutashadigan va ayrıladigan joyi. Chorraha chegarasi uning markazidan qatnov qismlari oxiridagi qarama-qarshi tomonlarning eng uzoq burilish joylarini tutashtiruvchi tasavvur qilinadigan chiziqlar bilan aniqlanadi. Chorrahalarda xavfsizlikni ta‘minlashga e’tibor berilmoqda ammo shunga qaramasdan YTHlar soni hanuz kamayganicha yo‘q. Chorrahalaridagi yo‘l- transport hodisalari ko‘pincha chorrahaga kirishda yoki chiqishda vujudaga keladi [1].

Chorrahadagi murakkab vaziyat odatda quyidagi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi:

- baxtsiz hodisa bo‘lsa;
- agar qatnov qismi torayib ketsa va bir nechta oqimlardan chiqqan avtomobillar bitta bo‘lakda tiklansa;
- Kesilgan yo‘l 8 undan ortiq bo‘lakka ega.
- Chorrahaning orqasida keng piyodalar o‘tish joyi mavjud.
- Yo‘llar 90 daraja burchak ostida kesilmaydi.
- Yo‘lning markazida ko‘rinishni cheklaydigan piyoda yoki ajratuvchi chiziq mavjud.
- Chorrahaning burchagida bino, to‘sinq yoki ko‘rinishni cheklaydigan boshqa ob‘ekt joylashgan.

- Chorraha nostandard shaklga ega va haydovchi uning chegaralari qayerdaligini aniqlay olmaydi [2].

Aksariyat chorrahalarida svetofor rejimi shunday yo‘naltirilganki, sizning yo‘nalishingizdan sariq signal yoqilganda, boshqalar qizil rangda yonadi. Shunday qilib, «o‘z vaqtida sariq rangda



tormozlashga vaqtлari bo‘lmagan» barcha haydovchilarga chorrahadan o‘tish uchun bir necha soniya vaqt beriladi. Bu shunchaki erkinlik, avval sariq haydashga odatlangan haydovchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga olib keladi va keyin ularni qizil svetofor bilan to‘xtatib bo‘lmaydi [3].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yurtimizda olib borilayotgan siyosat va bugungi zamon talabi shuni ko‘rsatadiki, yo‘llarda harakat xavfsizligini ta’minlash shuning bilan birga inson hayoti uning sog‘lig‘i,mol-mulkining muhofaza etilishi,davlat organlarining muhum vazifalaridan biri hisoblanadi.Bugun „Inson qadrini ulg‘lash” shiori ostida nafaqat davlat organlari balki har bir davlatimiz fuqarolari yurtimiz ravnaqi yo‘lidan bunyodkorlik ishlarini amalgalashlo lozim [4].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 12 apreldagi “Yo‘l harakati qoidalari tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-son-qarori. Toshkent-2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-son qarori. Toshkent- 2022.
3. S.M. Kodirov, K.M. Nazarov. “Yo‘l-transport xodisalari tahlili”. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent-2002.
4. Q.X. Azizov. “Harakat xavfsizligi asoslari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2009 yil.



## ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЖАМОАТЧИЛИК ПАЛАТАСИННИГ НОРМА ИЖОДКОРЛИГИДА ТУТГАН ЎРНИ.

Ш.Ж.Бурханова

Қорақалпок Давлат Университети,  
Инсон хуқуqlари, давлат хуқуки ва  
бошқарув кафедраси стажёр-ўқтувчиси

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикасида жамоатчилик палатасининг норма ижодкорлигида тутган ўрни ва Жамоатчилик палатасининг норма ижодкорлиги жараёнидаги иштироки масаласи МДХ давлатлари ва хорижий тажриба мисолида очиб берилган.

**Калит сўзлар:** норма ижодкорлиги, жамоатчилик палатаси, фуқаролик жамияти, жамоатчилик назорати, жамоатчилик экспертизаси.

Юртимизда демократик янгиланишлар, хусусан, сўз эркинлиги, журналист ва блогерларнинг эркин фаолият юритиши ва ижод қилишлари давлат ва жамият бошқарувида жамоатчиликнинг иштироки кўламини кенгайтирмоқда.

Бугунги кунда норма ижодкорлигини такомиллаштириш мақсадида аҳолининг давлат ва жамият ишларини бошқаришдаги иштироки кўламини кенгайтириш, сўз эркинлигини таъминлаш, шахс-жамият-давлат ўртасида самарали яқин ҳамкорликни ўрнатиш, жамоатчилик назоратига оид яхлит механизмни шакллантириш бўйича ягона институционал тузилма ташкил этиш мақсадга мувофиқ эди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев томонидан 2020 йил 25 январдаги Парламентга Мурожаатида “Ислоҳотларнинг амалий натижадорлигини оширишда, жойларда янги ташаббусларни илгари суришда аҳолимизнинг янада фаолроқ, янада ташаббускор бўлишига эришмоғимиз лозим<sup>1</sup>” деб таъкидлаганди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 16 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони<sup>2</sup> давлат ва жамоатчиликнинг самарали ҳамкорлигини йўлга қўйишда муҳим хуқуқий қадам бўлди.

Эндилиқда Жамоатчилик палатаси мамлакатимиз тараққиёти ҳамда халқимизнинг фаровонлиги йўлида мамлакатимизни ҳар томонлама ривожлантиришга қаратилган саъй-ҳаракатларини кўллаб-куватлаш, давлат ва жамоатчилик ўртасида энг мақбул мулоқотни йўлга қўяди. Бошқача айтганда, жамоатчилик ва давлат ўртасида ўзига хос бирлаштирувчи “кўприк” вазифасини ўтайди<sup>3</sup>.

Жамоатчилик палатасининг норма ижодкорлиги жараёнидаги иштироки масаласи кўплаб илмий ишларда учрайди. МДХ давлатларида бу масала нисбатан кўпроқ ўрганилган.

И.Дерен ва Л.Лазарева таъкидлашича, Жамоатчилик палатаси мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг энг муҳим масалаларини ҳал этишда фуқаролар ва жамоат бирлашмаларининг иштирокининг янги шакли бўлиб, у ҳали шаклланиш даврида давом этмоқда<sup>4</sup>.

Ушбу фикрга қўшилган ҳолда таъкидлаш мумкинки, бугунги кунда 10 мингдан ортиқ нодавлат нотижорат ташкилотлари<sup>5</sup> салоҳиятидан норма ижодкорлигини жамоатчилик

1 <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

2 Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.04.2020 й., 06/20/5980/0450-сон

3 Сайдуллаев Ш.А. Жамият – ислоҳотлар ташаббускори. // 2020 йил 15 июль. Халқ сўзи 14-сон.

4 Дерен Иванна Ивановна, Лазарева Лариса Владимировна Исследование роли Общественной палаты Российской Федерации в Общественной экспертизе нормотворчества // Вестник Самарского юридического института. 2019. №3 (34). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-roli-obschestvennoy-palaty-rossiyskoy-federatsii-v-obschestvennoy-ekspertize-normotvorchestva> (дата обращения: 29.04.2021).

5 Наримонов Бекзод НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОКАЗАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГ НЕГОСУДАРСТВЕННЫМ НЕКОММЕРЧЕСКИМ ОРГАНИЗАЦИЯМ В УЗБЕКИСТАНЕ // Review of law sciences. 2020. №Спецвыпуск. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-voprosy-sovershenstvovaniya-okazaniya-gosudarstvennyh-uslug-negosudarstvennym-nekommercheskim-organizatsiyam-v> (дата обращения: 29.04.2021).



экспертизасини амалга оширишда такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эга. Бу борада, нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларининг саъй-ҳаракатларини бирлаштириб турадиган Жамоат палатаси нодавлат нотижорат ташкилотлари вакиллигидан кўп жиҳатдан фарқ қиласи.

Муҳим масалалардан бири, хорижда қонунни парламентда депутатлар томонидан мухокама қилинишидан олдин “нолинчи” ўқиш деб атайдиган механизм, яъни Жамоатчилик палатасига ўта долзарб масалаларга доир норматив-хуқуқий хужжат лойиҳаларини жамоатчилик экспертизасидан ўтказиш, уларни жамоатчилик билан маслаҳатлашув ва эшитувлари асосида такомиллаштиришга кўмаклашиш вазифаси юклатиламоқда. Бу янгилик халқ ташаббуси билан халқчил қонунлар билан қабул қилинишига олиб келши шубҳасиз.

Хорижий тажрибага эътибор берсак, Жамоатчилик палатаси ва шу каби функцияни амалга оширувчи ташкилотлар кўп йиллик тарихга эга. Шу билан бирга, бу ҳали ҳам янги фуқаролик жамияти институти бўлиб, унинг ривожланиши учун барча давлатларга хос ва мос умумий рецепт йўқ. Ҳар бир ривожланган давлат кенг жамоатчилик иштироки ва жамоатчилик назоратини тўғри йўлга кўйиш орқали ўз мақсадига эришганлигини кузатиш мумкин.

“Жамоатчилик кенгаши” концепциясининг энг кенг қамровли таърифи **Халқаро нотижорат хуқуқ маркази<sup>1</sup>** томонидан берилган. Унга кўра мазкур тузилмаларга хос умумий хусусият расмий тузилишга жамоатчилик ташаббусларини ифода этиш, ўзаро маслаҳатлашув натижасида давлат бошқарувини амалга оширишга таъсир кўрсатишга ваколат берилган расмий тузилишга эга институтни тушунишимиз мумкин.

Европада илк жамоатчилик кенгашлари XX асрнинг бошларида у ёки бу шаклда вужудга кела бошланиб, Кенгаш вакиллари жамоатчилик ташаббусларини ифода этиш, давлат бошқарувини амалга оширишга таъсир кўрсатган. Гарб давлатларида жамоатчиликнинг давлат ва жамият бошқарувида фаол иштироки кучайиши таъсирида кейинчалик жамоатчилик назорати институти шаклланди. Бугунги кунда **80 дан ортиқ мамлакатларда** жамоат палаталари ва уларнинг аналоглари ташкил этилган. Улар айрим давлатларда конституциявий маслаҳат органи бўлса, айримларида маслаҳат органлари мақомига эга.

Юқоридагилардан холоса қилиб айтиш зарурки, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатаси мақомини конституциявий мақом даражасига кўтариш ва унинг раиси ва ўринбосарлари, худудий жамоатчилик палаталари раиси ва ўринбосарларини дахлсизлиги ва мустақиллигини қонунчиликда аниқ белгилаш муҳим масала саналади.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.04.2020 й., 06/20/5980/0450-сон
2. Сайдуллаев Ш.А. Жамият – ислоҳотлар ташаббускори. // 2020 йил 15 июль. Халқ сўзи 14-сон.
3. Дерен Иванна Ивановна, Лазарева Лариса Владимировна Исследование роли Общественной палаты Российской Федерации в Общественной экспертизе нормотворчества // Вестник Самарского юридического института.2019.№3(34).URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-roli-obschestvennoy-palaty-rossiyskoy-federatsii-v-obschestvennoy-ekspertize-normotvorchestva> (дата обращения: 29.04.2021).
4. Наримонов Бекзод Некоторые вопросы совершенствования оказания государственных услуг негосударственным некоммерческим организациям в Узбекистане // Review of law sciences. 2020 <https://cyberleninka.ru/article/n/nekotorye-voprosy-sovershenstvovaniya-okazaniya-gosudarstvennyh-nekommercheskim-organizatsiyam>
5. Нариманов Б. А. Нодавлат нотижорат ташкилотлари тарихи ва назарий хуқуқий асослари //«Хуқуқий тадқиқотлар» электрон журнали. – 2020. – Т. 8. – №. 5.
6. <https://aza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

1 Нариманов Б. А. НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ ТАРИХИ ВА НАЗАРИЙ-ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ //«Хуқуқий тадқиқотлар» электрон журнали. – 2020. – Т. 8. – №. 5.



## ПРОБАЦИЯ ХИЗМАТИНИНГ ОЗОДЛИКДАН МАҲРУМ ЭТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛМАГАН ЖАЗОЛАРНИ ИЖРО ЭТИШНИНГ МОҲИЯТИ

**Хасанбаев Соҳибжон Абдушукур ўғли**  
ИИВ Академияси курсанти  
**Холиков Асилбек Тўлқинжон ўғли**  
ИИВ Академияси курсанти  
Тел. +99891-166-60-76

**Аннотация.** Мақолада Пробация хизматининг озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этишда жазони ўтаб бўлгандан сўнг иш билан таъминлаш борасида хукуқшунос олимлар фикрлари ва қонунчиликдаги тарифлар асосида таҳлил қилинб кўриб чиқилган.

**Таянч тушунчалар:** пробация хизмати; электрон браслет; дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети.

Сўнгги йилларда мамлакатимизда жазони ижро этиш тизимини такомиллаштириш, қайта жиноят содир этилишининг олдини олиш мақсадида маҳкумларни ахлоқан тузатиш ва ижтимоий мослаштириш ишларининг самарадорлигини ошириш юзасидан комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 ноябрдаги «Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 4006-сон қарори асосида Пробация хизмати ташкил этилиб, 2019 йил 1 январдан эътиборан ўз фаолиятини бошлаган.

Пробация ўзи нима? у қандай хизмат деган саволлар туғулади албатта. Пробация хизмати илк бор 1887-йилда Англия жорий этилган. Ҳозирда кўплаб ривожланган мамлакатларда шундай хизмат фаолият юритади.

Хукуқшунос Маҳамадали Исмоилов фикрича, Пробация “синов” деган маънени англатиб, ҳалқаро амалиётда озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларнинг ижро этилишини таъминлаш ва назоратини олиб бориш билан шуғулланади. Яъни, суд ҳукми ёки ажрими билан озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларга ҳукм қилинган шахслар томонидан жазонинг ижро этилишини таъминлайди.

Шунингдек, Пробация хизмати ва тегишлича унинг ҳудудий бўлинмалари 2019 йил 1 январдан бошлаб ўз фаолиятини олиб бормоқда. Пробация бўлинмаларига ички ишлар органларининг озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этиш бўйича фаолиятини бошқа давлат органлари ва ташкилотлари, шунингдек, жамоат тузилмалари билан ўзаро ҳамкорликда самарали ташкил этиш, шартли ҳукм қилинган ва жазони ўташдан муддатидан илгари шартли озод қилинган шахсларнинг хулқ-атвори устидан таъсирчан назоратни амалга ошириш;

назорат остидагилар, шунингдек, жазони ижро этиш муассасаларидан озод этилган вояга етмаганларнинг ижтимоий мослашуви ва ишга жойлашишига, шу жумладан, уларнинг касбий тайёргарлиги бўйича тадбирларни ташкил этиш орқали ҳар томонлама амалий қўмаклашиш;

назорат остидагиларнинг қайта жиноят содир этиш хавфини аниқлаш ва бунга йўл қўймаслик бўйича профилактик чора-тадбирларни амалга ошириш, уларнинг шахсини ижтимоий-психологик портретни тузган ҳолда ўрганиш каби муҳим вазифалар белгилаб берилди.

Бундан ташқари, пробация хизмати ички ишлар органларининг озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ижро этиш инспекциясидан фарқли ўлароқ, мамлакатимизда амалга оширилаётган ислоҳотлар, энг аввало, инсон, унинг манфаатлари, ҳукуқлари ва эркинликларини ҳимоя қилишни таъминлаш учун хизмат қилмоқда. Тобора равнақ топиб бораётган юртимизда азалдан инсонпарварлик тамойиллари, инсон шаъни ва қадр қиммати олий масала сифатида баҳоланган.

Шунингдек, пробация бўлинмалари назорати остидаги шахсларни ижтимоий мослаштириш, уларга ҳукуқий ва психологик ёрдамни таъминлаш мақсадида йўл ҳариталари ва дастурлар ишлаб чиқилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Бандлик



ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Ўзбекистон Ёшлар ишлари агентлиги ҳамда Ички ишлар вазирлигининг Кўшма қарорлар қабул қилинди. Назорат остидаги шахсларни касбга йўналтириш ва ўқитиш мақсадида Пробация хизмати, «Интилиш» нодавлат-нотижорат Республика ахборот-таълим маркази ва Ўзбекистон Ёшлар иттифоқининг Кўшма қарори қабул қилиниб, бу борада амалга оширилиши лозим бўлган муҳим вазифалар белгилаб олинди.

Пробация бўлинмалари назоратида турган ёшлар ўртасида ички ишлар органларининг бошка соҳавий хизматлари, Ёшлар ишлари агентлиги, бандликка кўмаклашиш марказлари, хотин-қизлар қўмиталари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари ва бошқа жамоатчилик тузилмалари билан ҳамкорликда профилактик тадбирлар амалга оширилди.

Жумладан, Ёшлар ишлари агентлиги жойлардаги кенгашлари билан ҳамкорликда «Синовдан юксалишга қатъий қадам» шиори остида ўтказилган турли спорт мусобақалари ёрдамида адашган ёшларни тарбиялаш, уларнинг дунёқарашида Ватанга бўлган муҳаббат, ҳалоллик ва поклик каби фазилатларни кучайтиришга эришилди.

#### Фойдаланилган адабиётлар

1. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.11.2018 й., 07/18/4006/2166-сон, 13.12.2018 й., 06/18/5597/2300-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон, 15.04.2022 й., 07/22/207/0310-сон [Электрон манба]. Кириш йўли: <https://lex.uz/ru/docs/4045443> (Мурожаат қилинган сана: 21.05.2022).

2. [https://iiv.uz/oz/news/probatsiya-xizmati-dastlabki-bir-yillik-faoliyat-natijalari--valkelgusidagi\\_rejalar?ysclid=l4lhhy5pnt372628119](https://iiv.uz/oz/news/probatsiya-xizmati-dastlabki-bir-yillik-faoliyat-natijalari--valkelgusidagi_rejalar?ysclid=l4lhhy5pnt372628119).

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 ноябрдаги «Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 4006-сон қарори. [Электрон манба]. Кириш йўли: <https://lex.uz/ru/docs/4045443> (Мурожаат қилинган сана: 21.02.2022).



## РЕАБИЛИТАЦИЯ АСОСЛАРИГА КўРА ЖИНОЯТ ИШНИ ТУГАТИШГА ДОИР НОРМАЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Шакиров Акмалжон Ахмаджон ўғли,  
Бош прокуратура академияси  
магистратураси тингловчиси

**Аннотация:** Мазкур мақолада реабилитация асосларига кўра жиноят ишини тугатиш институтини қўллаш муаммоларининг мазмун-моҳиятини ёритиш, суд-тергов амалиётида айбилик масаласини ҳал қилмай жиноят ишини тугатиш институтини қўллашнинг хуқуқий асослари, айбилик масаласини ҳал қилмай жиноят ишини тугатиш институтини такомиллаштириш масалалари, айбилик масаласини ҳал қилмай жиноят ишини тугатиш институтини қўллаш муаммолари бўйича ривожланган хорижий давлатлар тажрибаси таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** реабилитация, жиноят ишини тугатиш, гумон қилинувчи, айбланувчи, судланувчи, жабрланувчи.

Ўзбекистон учун мустақиллик ундаги ҳалқларнинг ўз тақдирини, ривожланиш йўлини белгилаш, хуқуқий демократик давлат қуриш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш имкониятларини берди. Албатта, хуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятининг мақсади инсон хуқуқ ва эркинликлари имкон қадар тўла таъминлашдан иборат экан, давлатимиз сиёсатида жиноятчиликка қарши курашиб фаолияти инсон фаровонлигини мустаҳкамлашга қаратилган. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев қўйидаги таъкидлаганлар “Инсон манфаатларини ҳар томонлама таъминлаш енг долзарб вазифа сифатида қаралиши лозим”[1].

Бинобарин, бугунги кунда фуқароларнинг хуқуқ ва қонуний манфаатларини тўлақонли ҳимоя қилиш мақсадида суд ва хуқуқни муҳофаза қиливчи органларни фуқароларни хуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишдаги фаолиятини самарадорлигини оширишга доир қўшимча бир қатор чора тадбирлар амалга оширилмоқда. Бевосита бу борада, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев “Суд-хуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг хуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти [2] Фармонида суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини таъминлаш, одил судловга эришиш даражасини ошириш орқали фуқароларнинг хуқуқ ва эркинликларини янада ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш давлат сиёсатининг асосий устувор йўналиши сифатида белгиланди. Жумладан, мамлакат тараққиётининг кафолати давлат ва жамиятнинг барча тармоқларини ривожлантиришга қаратилган кенг қамровли ислоҳотларни амалга оширишда намоён бўлади. Айнан шу нуқтаи назардан, давлатимиз раҳбари томонидан 2022-йил 28-январдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида”ги фармонининг қабул қилиниши давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини ривожлантиришнинг устувор йўналишларини белгилаб берди ва уларни босқичма-босқич амалга оширишга замин яратди. Мазкур Тараққиёт стратегиясида “жиноят, жиноят-процессуал ва жиноят ижроия қонунчилигини такомиллаштириш сиёсатини изчил давом эттириш, жиноий жазолар ва уларни ижро этиш тизимиға инсонпарварлик тамойилини кенг жорий этиш” [3] каби устувор вазифалар белгилаб берилди.

Албатта, жиноят-процесси жароёнида реабилитация муҳим институт ҳисобланади. Яъни асоссиз жиноий тақибга учраган шахсларни олдинги хуқуқларини тиклаш ва уларга етказилган моддий ва маънавий заарларни тўлақонли қоплаш муҳим ҳисобланади. Чунки, жиноят-процесси жараёнида ҳеч бир фуқарони асоссиз жиноий жавобгарликка тортиш мумкин эмас, ҳамда унинг мол-мулкига зиён етказилиши инсон хуқуқларини тўлақонли тамилланмаётганидан далолат беради. Шунинг учун ҳам жиноят-процесси жараёнида реабилитация қилиш институти жуда муҳим ҳисобланади.

Реабилитацияни турли хуқуқшунос олимлар турли таърифлар бериб ўтишган булардан, У.А.Тухташевнинг фикрича, реабилитация айбизз шахснинг қонунга зид равишда жиноий жавобгарликка тортилиши, озодликдан маҳрум этилиши ва бошқа чеклашлар натижасида бузилган хуқуқлари қайта тикланиши ва келгуси фаолияти учун тўсқинлик қиласидаган барча



омилларнинг бекор қилинишидир [4]. Шунингдек, яна бир ҳуқуқшунос Н.Э.Шалумова эса, шахсга қонунда белгиланган кафолатлардан фойдаланиб, шахснинг қилган мурожаати асосида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва суд органларининг жиноят ишига асоссиз ёки қонунга зид равишда жалб этилган шахсларнинг бузилган ҳуқуқ ва эркинликларини қайта тиклаш ва уларга етказилган мулкий ва маънавий зарарни қоплашга қаратилган процессуал ва ташкилий фаолият [5] дея таъриф берган.

Бинобарин, реабилитациянинг мулкий ва бошқа оқибатлари мавжуд бўлиб, улар Ўзбекистон Республикаси Жиноят - процессуал кодекси 302 - моддасида белгиланган бўлиб шахсни қонунга хилофравиша ушлаб туриш, унга нисбатан эҳтиёт чораси сифатида қамоқда саклаб туриш қўлланилгани, шунингдек, шахс ишда айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилингани оқибатида ўз касбий мавкеи ёки вазифасидан ноқонуний равишида четлаштирилгани ёки тиббий муассасага жойлаштирилгани сабаб шахс кўрган мулкий зарарни ундиришни талаб қилиш ҳуқуқига эга. Ушбу ҳолатларда Жиноят - процессуал кодексининг 310-моддасига кўра реабилитация этилган шахснинг касбий мавкеини қайта тиклаш, нафака олиши ҳамда уй - жойдан фойдаланиш каби бошқа ҳуқуқлари ҳам тўла қайта тикланади [6].

Шахс реабилитация этилишида зарани қоплаш тўғрисидаги қонун ҳужжатларига кўра, агар асоссиз мулкий ёки маънавий зарар кўрса, унга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий нормалар ўзига хос юридик химоя қилиш ҳамда шахснинг давлат ва давлат органлари билан оммавий - ҳуқуқий муносабатларини моҳиятини белгилаб бериш каби принциплар ётади. Хорижий давлатлар ҳукукий тизимларида жавобгарлик хусусияти ва даражасини, жиноий таъкиб орқали етказилган зарарни қоплаш тўғрисидаги даъво тушса, судьялар, айбловчилар, терговчиларнинг дахлсизлик даражасини белгилаб беради. Асосан континентал ҳукуқда, яъни роман-герман типига мансуб давлатларда реабилитация этиладиган шахсга нисбатан зарарни қоплаш ишлаб чиқилган тизим хисобланади.

Жамият ҳуқуқий онг ривожланар экан, процессуал харакатлар натижасида гумон қилинувчи, айбланувчи, судланувчи ва маҳкумларга етказилган барча турдаги зарарни давлат томонидан қоплаш, шахснинг аввалги мавкеини тўлалигича қайта тиклаш зарурати реабилитация этишга оид белгиланган нормани кенг қамровда ўрганишни ва янги давр талабига хос тадбиқ этилишни тақозо этмоқда.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конститутсиясининг қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимидағи маъруzasи “Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини юрт тараққиёти ва ҳалқ фаровонлиги гарови” 07.12.2017 // [www.google.ru](http://www.google.ru);
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ва жиноят-процессуал конунчилигини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2018 йил 14 майдаги ПҚ-3723-сон қарори // URL: <https://lex.uz/docs/3735818>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Таракқиёт Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони // <http://lex.uz/docs/3050491>
4. Уголовный процессе Общая часть: Учебной пособие в 2-х частяхю Часть II. / Автор-составитель У.А.Тухашева. –Т., 2007. – С. 311.
5. Шалумова Н.Э. Проблемы организации работы правоохранительных и судебных органов по реабилитации: Автореф.Дис.... канд. Юрид. Наук. – Екатеринбург, 2007. – С. 9.
6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 й., 2-сон. // URL: <https://lex.uz/docs/111460>



**МУЛКИЙ ЗАРАРНИ ҚОПЛАШДА МОЛ-МУЛКНИ ХАТЛАШ ТЕРГОВ  
ҲАРАКАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.**

**Самандаров Кудрат Базарбаевич**  
Ўзбекистон Республикаси Ички  
ишлар вазирлиги, подполковниги

**АННОТАЦИЯ:** Мақолада жиноят процессуал кодекси талаблари асосида амалга ошириладиган мулкий зарарни қоплашда мол-мulkни хатлаш тергов ҳаракатининг назарий тушунчалари ва унинг бугунги кундаги амалиётдаги мавжуд муаммолар ва уларни ечимлари юзасидан муаллиф фикрлари баён этилган. Шунингдек, қонунчиликдаги мавжуд бўшликларни тўлдириш бўйича таклиф ва тавсиялар берилган.

**КАЛИТ Сўзлар:** хатлаш, терговчи, суриштирувчи, омонат дафтарча, зарар, мол-мulk, баённома, далиллар, микдор.

Бугунги кунда мафкура, сиёsat, ҳуқуқ кабиларга нисбатан қарапашлар, нафақат қарапашлар балки устқурма сифатида уларнинг туб моҳияти тубдан ўзгариб бориши баробарида бу соҳада моддий ва процессуал ҳуқуқ нормаларни янада тақомиллаштириш мақсадида ривожланган давлатларнинг қонунчилиги ўрганилиб, умум эътироф этилган ҳалқаро ҳуқуқ нормалари ва принциплар миллий қонунчилигимизга сингдирилиб, амалдаги қонун ҳужжатларида етказилган руҳий ва жисмоний азоблар учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарлик белгиланади.

Хусусан, маънавий зарар микдорини аниқлаш суд амалиётида учраб турадиган мунозарали масалалардан биридир, чунки уни аниқлашда мавжуд нормаларни қўллаш амалиёти ҳар хил.

Маънавий зарар микдорини белгилаш борасидаги суд амалиётини кўрадиган бўлсак, судлартомонидан даъвогарлартакқидим этаётган даъво аризасида маънавий зарарни қоплашни сўраган микдордан жуда кам микдорда қаноатлантирилаётганлигини кўриш мумкин. Ушбу жараёнга таъсир қиласидаги омиллар тўғрисида гапирганда, айтиш мумкинки, бир тарафдан бу борадаги қонун ҳужжатлари тақомиллашмаган, иккинчи тарафдан тегишли Олий суд Пленуми қарори қуии судларга бу борада мукаммал тушунтириш бермаган. Шу сабабдан ҳам маънавий зарарни ундириш билан боғлиқ ягона амалиёт шаклланмаган.

Бу борада зарарни ундиришда амалга ошириладиган мол-мulkни хатлаш тушунчасига эътибор қартиш лозим.

Мулкни хатлаш бу (ЎзРда) - мол-мulkни рўйхатга олиш ва уни тасарруф этиш ман этилганлигини эълон қилиш, зарур ҳолларда эса, мол-мulkдан фойдаланиш ҳуқуқини чеклаш, уни олиб қўйиш ва сақлашга топшириш. Фуқаролик процессида Мулкни хатлаш суд ҳал қилув қарорларини ижро қилиш босқичида, даъвони таъминлашнинг бир чораси сифатида қўлланилади. Жиноят процессуал қонунчилигига эса, фуқаровий даъволарни таъминлаш мақсадида терговчи ҳам Мулкни хатлаши мумкин. Бундай пайтда баённома тузилиб, унинг нусхаси тилхат асосида мулк эгасига берилади. Мулк хатлангач, унинг эгаси: мулкни сотиб юбориш, совға қилиш, алмаштириш, гаровга қўйиш каби ҳуқуқлардан маҳрум бўлади. Мулкни хатлаш далолатнома орқали расмийлаштирилади [1].

Далолатномада: у тузилган вақт ва жойи, суд ижроқисининг, далолатнома тузилишида иштирок этган шахсларнинг исм-шарифлари, Мулкни хатлаш учун асослар, ундириувчи ва қарздорнинг исм-шарифлари, мулк ҳақидаги маълумотнома, унинг тавсифи ва қиймати, мулкни сақлашга берилган шахснинг номи, Мулкни хатлаш жараёнида қатнашган шахсларнинг эътиrozлари ва шу кабилар кўрсатилади. Далолатномага суд ижроқиси, қарздор ва далолатнома тузилишида иштирок этган шахслар имзо чекади.

Мулкни хатлаш жараёнида суд ижроқиси ноқонуний хатти-ҳаракатлар қилган (мас, қонун бўйича хатлаш мумкин бўлмаган мулкни рўйхатга олган) бўлса, манфаатдор шахслар судга шикоят билан мурожаат қилишлари мумкин [2].

Жиноят процессуал қонунчилигига кўра ҳукмнинг фуқаровий даъвога ва бошқа мулкий ундиришларга доир қисмининг ижросини таъминлаш учун суриштирувчи, терговчи ёки суд гумон қилинувчи, айбланувчи, судланувчи ва фуқаровий жавобгарнинг мол-мulkини хатлаши шарт. Ашёвий далил деб эътироф этилган мол-мulkни ўзлаштиришнинг, харж қилиб юборишнинг, яширишнинг, йўқ қилиб ташлашнинг ёки шикастлантиришнинг олдини



олиши мақсадида ушбу мол-мулк ҳам хатланади [3].

Хатлаш тергов ҳаракатини оширишда терар жойлар ёки яшаш учун мўлжалланмаган жойлар, мулк шаклидан қатъи назар, давлатга хоинлик қилиш, конституциявий тузумга, Ўзбекистон Республикаси Президентига тажовуз қилиш, терроризм, кўпорувчилик жиноятлари содир этиш учун фойдаланилган ёхуд бу жиноятлар қасддан одам ўлдириш, босқинчилик, талончиллик ёки бошқа оғир, ўта оғир жиноятлар билан боғлиқ бўлган ҳолларда - бу жойлар хатланади [4].

Шахсга тегишли омонат дафтарчаларини олиб қўйиш билан бир вақтда, тегишли банкларга банкларда очилган депозит ҳисоб вараклардаги маблағларни хатлаш тўғрисидаги қарор нусхаси ҳам юборилади [5].

Хатлаш тўғрисидаги қарорнинг матнида иш юритувдаги жиноят ишининг рақами, қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда эса — жиноят ишидан келиб чиқадиган фуқаролик ишининг рақами кўрсатилади.

Содир этилган жиноят иши бўйича мулкий зарарни ундириш учун мол-мулкни хатлаш тарбининг тушунчаларини амалиёт таҳлилига эътибор қаратилса, бу бора бир қанча амалга оширилиши лозим бўлган ишлар мавжудлигини кўриш мумкмин

Жиноят-процессуал қонунчилигида хатланиши мумкин бўлган обьектлар тўлиқ кўрсатилмаган, жумладан транспорт воситасини хатлаш тарби ҳам мустаҳкамланмаган. Бу борада мол-мулкни хатлаш тўғрисидаги моддаларга хатланиши мумкин бўлган обьектларнинг турларини, уларни хатлашни истисно этиши мумкин бўлган ҳолатларни, шунингдек электрон маблағларни хатлаш чоралари бўйича бир қанча ўзгартиришлар киритиш тавсия этилади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. 1994 йил 22 сентябрь. <https://lex.uz/docs/111460>

2. Раҳмонқулов А. Х., Миразов Д. М. Даствлабки тергов: Дарслик. – Т., 2012. – 507 б.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги «Ички ишлар органларининг жиноятларни тергов қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2898-сон Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2017. – № 17. – 290-м.

4. Ўзбекистон Республикасининг «Суриштирув институти такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги 2017 йил 6 сентябрь ЎРҚ-442-сон Қонуни // Халқ сўзи. – 2017. – 7 сент.

5. Ўзбекистон Республикасининг жиноят процесси: Дарслик / Б.А.Миренский, А. Х. Раҳманқулов, Д. М. Миразов ва бошқ. – Т., 2012. – 607 б.



## THE CONSTITUTION IS THE ENEMY OF OUR HAPPINESS

**Abdurakhmonova Mumtoza Fazliddin qizi**

A student of the 110th group of Andizhan college of law

Phone number: +998902098224

E-mail: abduraxmonovamumtii1303@gmail.com

**Annotation:** This article deals with the history of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the first legal step towards the creation of the Constitution, the socio-political features of society, the main criteria for its development.

**Keywords:** citizen, Constitution of the Republic of Uzbekistan, society, development, criteria.

Before talking about the history of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, «What is the Constitution?» It is expedient to answer the question.

Constitution (Latin «Constitution» - structure, order) - the basic law of the state. It determines the structure of the state, the system of government and administration, their powers and procedures, the electoral system, the rights and freedoms of citizens, the relationship between society and the individual, as well as the judiciary and the relationship between state and society.

The term «constitution» was known in ancient Rome (the law known as the imperial constitution). Amir Temur's Tuzuklar was a special form of constitutional document typical of the civilizations of the East and Asia. Along with Sharia law, he had a strong influence on the fate of the peoples of Central Asia. Looking at the complex and important and at the same time glorious history of the creation of our Basic Law, we are convinced that the Constitution of the Republic of Uzbekistan is the result of our people's long-term pursuit of independence.

First of all, the construction of the constitutional «building» is based on three thousand years of experience of national statehood. Today's Uzbekistan embodies the ancient Khorezm and Sogdiana, the Karakhanids, Khorezmshahs, Amir Temur and Temurids, the Uzbek khanates, our enlightened ancestors, the historical traditions of our people and its centuries-old dream of an independent state.

In addition, based on our interests and aspirations, our Constitution is based on the advanced constitutional experience of 97 countries, East and West, South and North.

In this regard, the 10 most important historical events in the preparation, discussion, adoption and implementation of the first Constitution of Sovereign Uzbekistan should not be forgotten. After all, the history of the Constitution is an integral part of the struggle for independence. The first legal step in drafting a constitution is to give Uzbek the status of a state language. Although the word «Constitution» has been used in different times and in different senses, today it has a higher legal force, forms the basis of existing laws and regulations, changes and the addition of additions represents a fundamental law that is strictly controlled. The Constitution is the main symbol of the rule of law. It reflects the sociopolitical features of society, the main criteria for its development, the main directions of domestic and foreign policy of the country.

The fact that the Constitution is the legal basis and criterion for the social development of a country is clearly reflected in its functions. One of the main functions of the Constitution is to ensure succession in the development of statehood. In this regard, it should be noted that even if we take the rules of attention to the family or attitude to parents, which are enshrined in our constitution, it is universally recognized in the minds of our people as part of our centuries-old traditions, is an example of how our customs are reflected in our Constitution. As for the political function of the Constitution, it is expressed in the regulation of the social order of society, as well as in defining a certain legal framework for political life and the struggle for power. The essence of the organizational function is to organize the constitutional structure of the state and regulate the main criteria for its activities.

The Constitution contains ideas that promote the development of society. This demonstrates its practical function. The Constitution, as a basic law, forms the core of the legal and legislative system of a particular state, defines the priorities of the legal system, and this is reflected in another of its legal functions. The Constitution establishes democratic principles for the development of the state and society. During the democratic changes taking place in the republic, the Constitution has been amended as well. To date, the country's Constitution has been amended 14 times.



In short, in the developed democracies of the world, no individual, citizen can imagine the protection of their social and private life, rights and legitimate interests without a national Constitution. It states that human rights, honor and dignity are the highest values and serve the interests of the people.

#### **LIST OF REFERENCES**

1. Alimov H. R. - Administrative law. T., Academy of the Ministry of Internal highest values and serve the interests of the people.
2. Alimov X. R., Soloveva L. I. and dr. - Administrative law of the Republic of Uzbekistan. -T.: Adolat, 1998.
- 3.<https://files.tma.uz/kafedra/sud-med/Vrach>
- 4.<https://avitsenna.uz/bepul-tibbiy-yordam-kimlarga-korsatiladi/#gsc.tab=0>
- 5.<https://lex.uz/docs/-1726591>
- 6.[https://www.norma.uz/oz/bizning\\_sharhlar/konstituciya\\_-\\_bahtimiz\\_qomusi](https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/konstituciya_-_bahtimiz_qomusi)

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

**Эълон қилиши муддати: 30.06.2022**

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000